O'smirlik davrida emotsional intellektni namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	614
<i>Djumabaeva Manzura Bagibekovna, Zoirova Laylo Alisher qizi, Umirboyeva Zaxro Dilmurod qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim modellari mohiyati va ularning pedagogik tizimdagi o'rni (4K, 5E, 5I modellari misolida).....	617
<i>Raxmatov Uchkun Ergashevich, Qodirova Marjona Azamat qizi</i>	
Ayollarni iqtisodiy faollikka tayyorlashda o'quv dasturlarini loyihalash tamoyillari	624
<i>Diyarova Shaxloxon Rovshan qizi</i>	



Interfaol ta'lim metodlari asosida o'qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi: tajriba-sinov natijalari tahlili	628
Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi	
Raqamli muhitda maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining qo'shimcha ta'limini tashkil etish: tadqiqotlar sharhi	633
Amanova Dilorom Faxritdin qizi	
Kognitiv tilshunoslikda skript atamasi va uning voqelanish mexanizmlari	637
Fayzullayev Shohrux	
The Concept of Blended Learning and its Role in the Modern Educational Paradigm	641
Fozilova Maxina Adashevna	
Finlyandiya boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika fanini o'qitish metodikasi	645
G'aybulloyeva Yulduz Mexriddinovna	
Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish	651
Isoqov Shohruh Turabek o'g'li	
Communicative-Pragmatic Analysis of Binary-Based Paremias in English, Uzbek, and Russian Languages	654
Jumanova Sabrina Vaydullo kizi	
Internet-risk profilaktikasining bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashdagi o'rni	659
Mamatxanova Nargiza Toxirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	663
N. Sh. Abdullayeva, F. R. Valiyeva, S. S. Raximova	
Musiqiy-ritmik harakatlarning asosiy komponentlari va ularni rivojlantirishda SI imkoniyatlari	667
O. A. Shodiyeva	
Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik xususiyatlari ..	672
Y. R. Azzamov	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsion yondashuv asosida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari	676
Yakubova Zilola Zikirovna	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarda mas'uliyatni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	679
Teshayeva Dilnoza Chori qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat turlari asosida estetik tarbiyalash masalalari.	684
Yuldasheva Dilshoda To'liqinovna	
Профессиональная рефлексия как фактор развития научного интеллекта будущего педагога в системе педагогического образования	688
Анварова Хуснора, Исохонова Азиза	
Толерантность в мультикультурном обществе	692
Бекбосынова З. К.	
Методика работы над ошибками как средство повышения грамотности	696
Исмаилова Мадинабону	
Методы и подходы к развитию профессиональной лексической компетенции студентов военных направлений	701
Хамидова Нигора Тулкуновна	

INTERFAOL TA'LIM METODLARI ASOSIDA O'QITUVCHILARNING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI: TAJRIBA-SINOV NATIJALARI TAHLILI

Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

ORCID: 0009-0007-6266-9331

Ilmiy rahbar: Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna

Pedagogika fanlari doktori, professor Shahrisabz davlat pedagogika instituti

ORCID: 0000-0002-1754-2303

Annotatsiya: Interfaol ta'lim metodlari – brainstorming, case-study, loyiha metodikasi, SCAMPER va design thinking – yordamida oliy ta'lim muassasalari talabalarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodikaning ilmiy-nazariy asoslari hamda tajriba-sinov natijalari tahlil qilinadi. 2021–2026-yillar davomida Shahrisabz davlat pedagogika institutining pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalari (tajriba guruhi n=21, nazorat guruhi n=21) ishtirokida o'tkazilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar asosidagi maxsus metodika joriy etilgan tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushi 23,8 % dan 28,5 % ga, o'rta daraja 33,3 % dan 47,7 % ga oshgan, quyi darajadagi talabalar ulushi esa 42,9 % dan 23,8 % gacha kamaygan. Nazorat guruhida bunday ijobiy dinamika kuzatilmagan. Kreativlik ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini baholash mezonlari, anketa so'rovnoma natijalari va taqqoslama statistik tahlil natijalari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: interfaol ta'lim metodlari, kreativlik, brainstorming, case-study, SCAMPER, design thinking, pedagogik metodika, tajriba-sinov, bakalavr talabalari.

Abstract: The scientific and theoretical foundations and experimental results of a methodology aimed at developing the creative abilities of higher education students through interactive learning methods—brainstorming, case-study, project-based learning, SCAMPER, and design thinking—are analysed. The experiment conducted in 2021–2026 with the participation of students majoring in Pedagogy and Psychology at Shahrisabz State Pedagogical Institute (experimental group n=21, control group n=21) revealed that the implementation of a special methodology based on interactive methods led to a significant increase in the proportion of high-level students from 23.8% to 28.5% and medium-level students from 33.3% to 47.7%, while the proportion of low-level students decreased from 42.9% to 23.8%. No similar positive dynamics were observed in the control group. The study also presents criteria for assessing the level of creativity development, results of questionnaire surveys, and comparative statistical analysis.

Key words: interactive learning methods, creativity, brainstorming, case-study, SCAMPER, design thinking, pedagogical methodology, experimental study, undergraduate students.

Аннотация: Проанализированы научно-теоретические основы и результаты экспериментального исследования методики, направленной на развитие креативных способностей студентов высших учебных заведений с использованием интерактивных методов обучения – brainstorming, case-study, проектного метода, SCAMPER и design thinking. Эксперимент, проведённый в 2021–2026-годы с участием студентов направления “Педагогика и психология” Шахрисабзского государственного педагогического института (экспериментальная группа n=21, контрольная группа n=21), показал, что внедрение специальной методики на основе интерактивных методов обеспечило рост доли студентов с высоким уровнем креативности с 23,8 % до 28,5 %, со средним уровнем – с 33,3 % до 47,7 %, тогда как доля студентов с низким уровнем снизилась с 42,9 % до 23,8 %. В контрольной группе подобная положительная динамика не выявлена. Представлены критерии оценки сформированности креативных навыков, результаты анкетирования и сравнительный статистический анализ.

Ключевые слова: интерактивные методы обучения, креативность, brainstorming, case-study, SCAMPER, design thinking, педагогическая методика, экспериментальное исследование, студенты бакалавриата.



KIRISH

Zamonaviy ta'lim paradigmasi o'qituvchidan nafaqat bilim uzatuvchi sifatida, balki kreativ, innovatsion va moslashuvchan pedagog sifatida faoliyat ko'rsatishni talab etmoqda. XXI asr kasbiy kompetentliklari qatorida kreativlik – "to'rtinchi industrial inqilob" (Schwab, 2016) va raqamli transformatsiya sharoitida eng muhim ko'nikmalardan biri sifatida tan olinmoqda. Xususan, World Economic Forum'ning "Future of Jobs" hisobotida (2023) kreativlik va tanqidiy fikrlash mehnat bozorida talab qilinadigan eng ustunlik ko'nikmalar sifatida alohida ajratib ko'rsatilgan.

O'zbekistonda ham ushbu muammo davlat siyosati darajasida e'tirof etilgan. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni "2030-yilgacha bo'lgan davrda ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" va Milliy o'quv dasturlarida o'qituvchilarning kreativ kompetentliklarini rivojlantirish masalasi alohida ustuvorlik sifatida belgilangan. Biroq amaliyotda bu masalaning yechimi hanuz muammoli bo'lib qolmoqda: an'anaviy o'qitish usullari o'qituvchi va talabalarning ijodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga imkon bermayapti.

Kreativlikni rivojlantirishning nazariy asoslarini J. Guilford (divergent fikrlash nazariyasi, 1950), E. Paul Torrance (kreativlik testlari, 1966), K. Robinson ("Maktab kreativlikni o'ldirmoqdam?", 2006), Mihaly Csikszentmihalyi ("flow" nazariyasi, 1990) va boshqa ko'plab olimlar o'rganib chiqqan. Mahalliy pedagogika fanida esa G'. Yo'ldoshev, N. Muslimov, M. Ochilov kabi olimlarning ishlari bu sohadagi ilmiy asosni tashkil etadi. Shunga qaramay, interfaol ta'lim metodlarini o'qituvchi kreativligini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli metodika sifatida qo'llash masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Ushbu maqolaning maqsadi – interfaol ta'lim metodlari (brainstorming, case-study, loyiha metodikasi, SCAMPER, design thinking) asosida ishlab chiqilgan metodikaning bakalavr bosqichi talabalarida kreativlik ko'nikmasini rivojlantirishdagi samaradorligini tajriba-sinov natijalari orqali ilmiy asoslash va tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativlik kontsepsiyasining pedagogika faniga kirib kelishi XX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. J. Guilford (1950) o'zining mashhur APA prezidentlik nutqida divergent fikrlash tushunchasini ilgari surib, kreativlikni o'lchanadigan va o'rgatilishi mumkin bo'lgan ko'nikma sifatida qayta ta'rifladi. Ushbu yondashuv pedagogik amaliyotda kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlarni ishlab chiqish uchun muhim zamin yaratdi.

E. P. Torrance (1974) kreativlikning to'rtta asosiy ko'rsatkichini – ravonlik (fluency), moslashuvchanlik (flexibility), o'ziga xoslik (originality) va elaboratsiya (elaboration) – aniqladi. Bu ko'rsatkichlar hozirgi kunda ham kreativlikni baholashda keng qo'llaniladi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan mezonlar ham Torrance modeliga uzviy bog'liq.

Interfaol ta'lim metodlarining kreativlikka ta'sirini o'rgangan Beghetto va Kaufman (2007) "mini-c" kreativlik nazariyasini taklif etib, kundalik o'quv jarayonida kuzatiladigan kichik ijodiy aktlarning ahamiyatini ta'kidladi. Brainstorming metodi (Osborn, 1953) kreativ fikrlashni guruh muhitida faollashtirish uchun eng ko'p o'rganilgan metodlardan biri bo'lib, ayrim tadqiqotlarda (Paulus & Nijstad, 2003; Nemeth et al., 2004) uning samaradorligi turlicha baholangan bo'lsa-da, o'quv muhitida maxsus tashkil etilgan brainstorming seanslarining ijobiy ta'siri ko'plab pedagogik tadqiqotlarda (Crompton, 2011) isbotlangan.

Design thinking metodologiyasi (Brown, 2008; IDEO) so'nggi o'n yillikda ta'lim sohasiga faol kirib kelib, Stanford d.school modeli asosida empatiya, muammoni aniqlash, g'oyalar generatsiyasi, prototiplash va sinov bosqichlarini o'z ichiga oladi. Ushbu metodning pedagogik ta'limda qo'llanilishi Grots (2021) tomonidan tadqiq etilib, ijobiy natijalar qayd etilgan.

O'zbekiston pedagogikasida bu masala G'. Yo'ldoshev (2005, 2012), N. Muslimov va M. Ochilov ishlarida yoritilgan bo'lsa-da, interfaol metodlarning tizimli metodika sifatida kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan qo'llanilishi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Xalqaro adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning aksariyati G'arb universitetlari kontekstida amalga oshirilgan (Davies et al., 2013; Henriksen et al., 2016), O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston sharoitida esa bu boradagi ilmiy izlanishlar yetarli emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot kvaziekperimental dizayn (quasi-experimental design) asosida tashkil etilib, "oldindan test – keyingi test – nazorat guruhi" (pretest–posttest control group) sxemasidan foydalanildi (Campbell & Stanley, 1963). Tadqiqotda Shahrisabz davlat pedagogika institutining "Pedagogika va psixologiya" yo'nalishi 2–3-kurs

1 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>



talabalari ishtirok etdi. Jami 42 nafar talaba tajriba guruhi (TG, n=21) va nazorat guruhi (NG, n=21) ga taqsimlandi. Guruhlarni shakllantirishda maqsadli tanlov (purposive sampling) metodidan foydalanilib, ularning dastlabki bilim darajasi, jinsi va kursi jihatidan muvozanatli taqsimlanishi ta'minlandi.

Ishtirokchilarning yoshi 19–22 yosh oralig'ida bo'lib, tadqiqot 2021–2022 hamda 2025–2026-o'quv yillarini qamrab oldi. Tajriba guruhida “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fani doirasida interfaol ta'lim metodlariga asoslangan maxsus metodika joriy etildi. Metodika brainstorming va “aqliy hujum” texnikasi orqali g'oyalar generatsiyasi (haftasiga 1 marta, 20 daqiqa), case-study orqali real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish (har ikki haftada bir marta), loyiha metodikasi asosida semestr davomida 2 ta mini-loyiha, SCAMPER texnikasi yordamida pedagogik yondashuvlarni modifikatsiya qilish hamda design thinking asosida muammolarni bosqichma-bosqich yechish jarayonlarini o'z ichiga oldi.

Nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish usullari – ma'ruza, savol-javob va mustaqil ishlar – saqlab qolindi. Ma'lumot to'plashda Likert shkalasidagi anketa (30 savol, 1–5 ball), 100 ballik baholash tizimidagi test va kreativlik ko'nikmasini baholash rubrikasidan foydalanildi. So'rovnoma ishonchliligi Cronbach alpha koeffitsienti orqali tekshirilib, $\alpha = 0,84$ natija yuqori ishonchlilikni ko'rsatdi. Kreativlik darajalari yuqori (86–100 ball), o'rta (71–85 ball) va quyi (55–70 ball) kategoriyalar asosida baholandi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda tavsifiy statistika, Wilcoxon testi hamda Mann–Whitney U testi qo'llanilib, ishonchlilik darajasi $p < 0,05$ sifatida belgilandi. Sifatiy ma'lumotlar kontent-tahlil usuli yordamida qayta ishlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba boshlangunga qadar o'tkazilgan asoslovchi bosqich natijalari tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida kreativlik ko'nikmasining shakllanganlik darajasi jihatidan statistik jihatdan ahamiyatli farq kuzatilmadi (Mann–Whitney U = 187,5; $p = 0,42 > 0,05$). Bu holat guruhlar orasida dastlabki tenglikning ta'minlanganligini tasdiqlaydi va keyingi natijalarning metodika ta'siridan kelib chiqishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

1-jadval: Asoslovchi tajriba bosqichi natijalari (2024–2025-o'quv yili, n=42)

Daraja	TG soni	TG %	NG soni	NG %	Farq (TG-NG)
Yuqori (a'lo)	5	23,8%	3	14,2%	+9,6%
O'rta (yaxshi)	7	33,3%	7	33,3%	0%
Quyi (qoniqarli)	9	42,9%	11	52,5%	-9,6%
Jami	21	100%	21	100%	–

Izoh: TG – tajriba guruhi; NG – nazorat guruhi. Farq = TG % – NG %.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, asoslovchi bosqichda tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar 23,8 % ni, nazorat guruhida esa 14,2 % ni tashkil etgan. O'rta darajada har ikki guruhda ham bir xil ko'rsatkich – 33,3 % – qayd etilgan. Quyi darajada tajriba guruhida 42,9 %, nazorat guruhida 52,5 % talaba bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichlar ikkala guruhning taxminan bir xil boshlang'ich shart-sharoitda ekanligini tasdiqlaydi.

Ta'kidlovchi tajriba: yakuniy natijalar (2025–2026-o'quv yili). Interfaol metodlarga asoslangan maxsus metodika to'liq joriy etilgandan so'ng o'tkazilgan ta'kidlovchi tajriba bosqichida ikkala guruh o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq qayd etildi (Mann–Whitney U = 94,0; $p = 0,003 < 0,05$). Bu natija metodikaning samaradorligini yuqori ishonchlilik darajasida tasdiqlaydi.

2-jadval: Ta'kidlovchi tajriba bosqichi natijalari (2025–2026-o'quv yili, n=42)

Daraja	TG soni	TG %	NG soni	NG %	Farq (TG-NG)
Yuqori (a'lo)	6	28,5%	2	9,5%	+19,0%
O'rta (yaxshi)	10	47,7%	9	42,8%	+4,9%
Quyi (qoniqarli)	5	23,8%	10	47,7%	-23,9%
Jami	21	100%	21	100%	–

Izoh: TG – tajriba guruhi; NG – nazorat guruhi. Farq = TG % – NG %.

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushi 28,5 % ga yetgan (nazorat guruhida atigi 9,5 %), o'rta daraja esa 47,7 % ni tashkil etmoqda (nazorat guruhida 42,8 %). Eng muhim natija – quyi darajadagi talabalar ulushining tajriba guruhida 23,8 % gacha kamayishi bo'ldi, nazorat guruhida bu ko'rsatkich hali ham 47,7 % darajasida qolmoqda. Tajriba guruhi bilan nazorat guruhi o'rtasidagi farq yuqori darajada 19,0 foiz punktni tashkil etmoqda.



3-jadval: Bosqichlararo qiyosiy tahlil (oldin/keyin, foiz)

Daraja	TG oldin	TG keyin	TG o'zg.	NG oldin	NG keyin	NG o'zg.
Yuqori (a'lo)	23,8 %	28,5 %	+4,7 %	14,2 %	9,5 %	-4,7 %
O'rta (yaxshi)	33,3 %	47,7 %	+14,4 %	33,3 %	42,8 %	+9,5 %
Quyi (qoniqarli)	42,9 %	23,8 %	-19,1 %	52,5 %	47,7 %	-4,8 %

Izoh: TG – tajriba guruhi; NG – nazorat guruhi; o'zg. – o'zgarish (foiz punkt).

3-jadval eng muhim empirik xulosani vizual tarzda ifodalaydi. Tajriba guruhida o'rta daraja +14,4 foiz punktga oshib, metodikaning o'rta darajali talabalarni kreativlik jihatidan sezilarli tarzda rivojlantira olishini ko'rsatmoqda. Quyi darajada esa -19,1 foiz punktili kamayish eng katta sifatli o'zgarishni anglatadi – bu talabalar o'rta va yuqori darajaga o'tgan. Nazorat guruhida esa o'rta daraja ham atigi +9,5 foiz punktga oshgan, yuqori daraja esa pasaygan.

Anketa so'rovnomasining Likert shkalasidagi (1–5 ball) asosiy savollari bo'yicha tajriba va nazorat guruhlarining o'rtacha ball ko'rsatkichlari quyida berilgan.

4-jadval: Anketa so'rovnomasi natijalari: guruhlar o'rtacha ballari taqqosi (yakuniy bosqich)

№	Savol	TG o'rt.	NG o'rt.	Farq
1	Interfaol metodlar kreativlikni rivojlantiradimi?	4,6	3,1	+1,0
2	Brainstorming metodi samarali deb hisoblaysizmi?	4,5	3,0	+1,0
3	Case-study mustaqil fikrlashni rivojlantiradimi?	4,7	3,2	+1,0
4	Dars jarayonida kreativ topshiriqlarga qiziqasizmi?	4,4	2,9	+2,0
5	Guruh ishida ijodiy yondashuv qo'llaysizmi?	4,3	3,1	+1,0
6	Kreativlik o'rgatiladigan ko'nikma ekanligiga ishonasizmi?	4,8	2,8	+2,0
7	O'qituvchi kreativligi o'quvchi yutuqlariga ta'sir qiladimi?	4,9	3,3	+1,0

Izoh: TG o'rt. – tajriba guruhining o'rtacha balli; NG o'rt. – nazorat guruhining o'rtacha balli; Farq = TG – NG.

4-jadvaldan ko'rinadiki, barcha savollarda tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etgan. Ayniqsa e'tiborli natija 7-savolda – "O'qituvchi kreativligi o'quvchi yutuqlariga ta'sir qiladimi?" – qayd etildi: tajriba guruhining o'rtacha balli 4,9/5,0 bo'ldi. Bu natija metodika talabalar ongida kreativlik va o'qituvchi samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik haqida to'g'ri tushuncha shakllantirganini ko'rsatadi. O'rtacha farq barcha savollar bo'yicha +1,5 ballni tashkil etdi.

Olingan natijalar bir qator muhim ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo'ladi.

Birinchidan, interfaol metodlar asosidagi metodika bakalavr bosqichi talabalarida kreativlik ko'nikmasini rivojlantirishda an'anaviy o'qitish uslubiga nisbatan statistik jihatdan ahamiyatli darajada ($p = 0,003$) samarali ekanligini isbotladi. Bu natija Davies va boshq. (2013) ning kreativ muhit yaratuvchi interfaol metodlar haqidagi xulosalari bilan uyg'undir.

Ikkinchidan, eng katta sifatli o'zgarish quyi darajali talabalar orasida kuzatildi (-19,1 foiz punkt). Bu holat metodikaning differensial ta'siri nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega: kreativlik ko'nikmasi past bo'lgan talabalar uchun interfaol metodlar ayniqsa samarali ekan. Bu Csikszentmihalyi (1990) ning "flow" nazariyasi bilan izohlanishi mumkin – interfaol metodlar talabalarni optimal qiyinchilik darajasida ushlab, ularning chuqur o'quv jarayoniga kirishini ta'minlaydi.

Uchinchidan, brainstorming va "aqliy hujum" texnikasi anketa natijalari bo'yicha eng yuqori qiziqish va samaradorlik ko'rsatkichlarini berdi. Bu Cropley (2011) ning guruh kreativligi haqidagi tadqiqotlarini qisman tasdiqlaydi. Biroq design thinking metodi ham yuqori natijalar ko'rsatgan – ayniqsa real pedagogik muammolarni yechishda bu metodning samaradorligi e'tiborli. Bu Stanford d.school modeli doirasidagi Grots (2021) tadqiqoti natijalari bilan parallel.

To'rtinchidan, nazorat guruhida o'rta daraja bir oz oshgan (+9,5 %). Bu shuni ko'rsatadiki, faqat an'anaviy o'qitish ham muayyan darajada kreativlikni rivojlantirishi mumkin – lekin bu o'zgarish tajriba guruhidagi o'zgarish bilan solishtirganda statistik jihatdan past va amaliy jihatdan ahamiyatsiz.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida quyidagilarni ta'kidlash lozim:

- 1) tanlov hajmi nisbatan kichik ($n=42$), bu natijalarni umumlashtirish imkoniyatini cheklaydi;
- 2) tadqiqot bitta muassasa doirasida o'tkazilgan;
- 3) kreativlikni faqat miqdoriy ko'rsatkichlar bilan o'lchash murakkab konstruktsiyaning barcha qirralarini to'liq aks ettirmaydi.

Kelajakdagi tadqiqotlar kattaroq tanlov hajmi, bir nechta muassasa va uzunlamasiga dizayn orqali ushbu cheklovlarni bartaraf etishi maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot interfaol ta'lim metodlari – brainstorming, case-study, loyiha metodikasi, SCAMPER va design thinking – asosida ishlab chiqilgan metodikaning bakalavr bosqichi talabalarida kreativlik qobiliyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini empirik jihatdan isbotladi. 42 nafar talaba ishtirokida, 4-yillik kuzatuv davomida olingan natijalar quyidagi ilmiy xulosalarni asoslab berdi:

1. Interfaol metodlar asosidagi metodika an'anaviy o'qitish uslubiga nisbatan kreativlik ko'nikmasini rivojlantirishda statistik jihatdan ahamiyatli darajada ($p = 0,003$) samaraliroq ekanligini tajriba-sinov natijalari tasdiqladi.
2. Tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushi 23,8 % dan 28,5 % ga, o'rta daraja esa 33,3 % dan 47,7 % ga oshgan; quyi daraja 42,9 % dan 23,8 % gacha –19,1 foiz punktga kamaygan – bu metodikaning eng muhim amaliy natijasi hisoblanadi.
3. Kreativlik ko'nikmasini baholashning ishlab chiqilgan mezonlari tizimi (ravonlik, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik, elaboratsiya asosida) yuqori ekspert validiteti ($r = 0,87$) va ishonchliligiga (Cronbach $\alpha = 0,84$) ega ekanligi aniqlandi.
4. Metodika ayniqsa kreativlik darajasi past bo'lgan talabalar uchun samarali bo'lib, bu interfaol metodlarning inkluziv va differensial pedagogik imkoniyatlarini ko'rsatadi.
5. Anketa so'rovnomasi natijalari ko'rsatdiki, interfaol metodlar bilan ishlagan talabalar o'qituvchi kreativligi va o'quvchi yutuqlari o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq anglagan (o'rtacha ball: TG – 4,9; NG – 3,3).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi. (2020). "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasi Qonunlar to'plami.
2. Beghetto, R. A., & Kaufman, J. C. (2007). Toward a broader conception of creativity: A case for mini-c creativity. *Psychology of Aesthetics, Creativity, and the Arts*, 1(2), 73–79.
3. Brown, T. (2008). Design thinking. *Harvard Business Review*, 86(6), 84–92.
4. Campbell, D. T., & Stanley, J. C. (1963). *Experimental and quasi-experimental designs for research*. Houghton Mifflin.
5. Cropley, A. (2011). Definitions of creativity. In M. A. Runco & S. R. Pritzker (Eds.), *Encyclopedia of creativity* (2nd ed., pp. 511–524). Academic Press.
6. Csikszentmihalyi, M. (1990). *Flow: The psychology of optimal experience*. Harper & Row.
7. Davies, D., Jindal-Snape, D., Collier, C., Digby, R., Hay, P., & Howe, A. (2013). Creative learning environments in education – A systematic literature review. *Thinking Skills and Creativity*, 8, 80–91.
8. Guilford, J. P. (1950). Creativity. *American Psychologist*, 5(9), 444–454.
9. Henriksen, D., Richardson, C., & Mehta, R. (2017). Design thinking: A creative approach to educational problems of practice. *Thinking Skills and Creativity*, 26, 140–153.
10. Osborn, A. F. (1953). *Applied imagination: Principles and procedures of creative problem solving*. Scribner.
11. Robinson, K. (2006). Do schools kill creativity? [TED Talk]. TED Conferences. https://www.ted.com/talks/sir_ken_robinson_do_schools_kill_creativity
12. Schwab, K. (2016). The fourth industrial revolution. World Economic Forum.
13. Torrance, E. P. (1974). The Torrance tests of creative thinking. Scholastic Testing Service.
14. World Economic Forum. (2023). Future of jobs report 2023. World Economic Forum.
15. Yo'ldoshev, G'. (2005). *Pedagogik mahorat*. O'zbekiston.
16. Muslimov, N. A. (2012). O'qituvchi kompetentligi: nazariya va amaliyot. TDPU nashriyoti.
17. Jo'rayev, R. H. (2013). Oliy ta'limda kreativ muhitni shakllantirish. *Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi*. TDPU.
18. Grots, T. (2021). Design thinking in teacher education: A longitudinal study. *Journal of Creative Behavior*, 55(3), 712–728.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.